

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**YANGI IQTISODIY TEXNOLOGIYALAR (YAIT) - INSON KAPITALI
MULOQOT MODELLARINING ASOSI**

Yuldasheva S.N.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Menejment kafedrası dotsenti, Buxoro sh., saidayuldasheva@mail.ru

Raxmanova K.

714-21 MNT guruhi talabasi

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ – ОСНОВА КОММУНИКАЦИОННЫХ
МОДЕЛЕЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА**

Юлдашева С.Н.

*Доцент кафедры Менеджмент Бухарского инженерно-технологического
института, г.Бухара., saidayuldasheva@mail.ru*

Рахманова К.

Студентка гр 714-21 МНТ

**NEW ECONOMIC TECHNOLOGIES – THE BASIS OF COMMUNICATION
MODELS OF HUMAN CAPITAL**

Yuldasheva S.N.

*Associate Professor of the Department of Management, Bukhara Engineering and
Technological Institute, Bukhara., saidayuldasheva@mail.ru*

Raxmanova K.

Student of group 714-21MNT

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida insonlarning kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi[12].

Inson kapitali insonlar o'z hayoti davomida jamg'aradigan bilim, ko'nikma va salomatlik darajasidan tashkil topadi. Insonlarning salomatlik va ta'lim darajasi inson uchun shubhasiz muhim qiymatga ega bo'lgani holda, inson kapitali esa ularga jamiyatning faol a'zosi sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi[13]. Fuqarolarning yuqori ish haqi, mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad darajasi,

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

jamiyat a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasi ko'p jihatdan inson kapitali sifatining yaxshilanishiga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida barqaror rivojlanish va kambag'allikni kamaytirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga esa raqamli iqtisodiyotning amalga oshirilishi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi[10]. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – traksaktsion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi[14]. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi[11].

Hozir butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug'dirmoqda. Chunki

oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi[15].

Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda:

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

a) axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish[16];

b) yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);

c) o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;

d) autsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;

e) muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir. Texnologik raqamli muhit – bu yuridik va jismoniy shaxslar hamkorlikdagi faoliyat uchun butunlay yangi muloqotni yo'lga qo'yadigan «akvarium» hisoblanadi. Axborot texnologiyalari korxonalarga butunlay yangi, yanada jadal ish sur'atlarini o'zlashtirish hamda xizmat va mahsulotlar shaklini xilma-xillashtirishga imkoniyat yaratdi. Xizmat ko'rsatish sohasida axborot texnologiyalari ko'plab kundalik vazifalarni hal qiladi, buning natijasida esa yirik ko'lamdagi amallar tezroq, arzonroq, qulayroq va o'rtadagi vositachilarsiz bajariladi. Elektron savdo, internet-banking va boshqa shu kabi zamonaviy yo'nalishlar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Natijada daromadni oshirish uchun aksar sohalarda avtomatik tarmoqli servislar (masalan, sifatli veb-sayt yoki mobil ilova kabi) biznesdagi vositachilar o'rnini egallamoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat va bir vaqtning o'zida eng murakkab bosqich – bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish hamda odamlar va biznesning davlat bilan muloqotiga sarflanajak xarajatlarni maksimal qisqartirishdir. Raqamlashtirishdan maksimal foyda olishni istagan davlat, zaruriy yuqori texnologik mahsulotlarning bozorini yaratishi va uni qo'llab-quvvatlashi lozimdir. Shu bilan birga, parallel tarzda davlat boshqaruvi, muhim sohalar va korxonalar uchun xususiy ilovalarni rivojlantirgan holda, elektron iqtisodiyotning asosiy platformalarini nazorat qiluvchi instrumentlarni o'z izmida saqlab qolish ham muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishiga asoslangan[18]. Jahon banki hisob-kitoblari binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko'payishi yillik YaIM ko'lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o'sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

belgilaydigan ko'rsatkich sifatida qaraladi. Ko'pincha IT sohasining rivojiga qo'shilgan hissa iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, odamlar va biznes uchun yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, elektron hukumat loyihalari doirasida xarajatlarning qisqarishiga zamin yaratadi.

Axborot platformalarini birlashtirish natijasida paydo bo'lgan muloqot modellari yangi iqtisodiy texnologiyalarning (YaIT) paydo bo'lishiga turtki beradi.

YaIT – bu tashkiliy boshqaruv tizimlariga biror maqsadga xizmat qiladigan axborot (ma'lumotlar, g'oyalar va bilimlar) mahsulotlarini yaratish, ularni uzatish, saqlash va aks ettirish uchun yaxlit texnologik platformaga birlashuvchi va iqtisodiy agentlar muloqotiga sarflanadigan traksaksion xarajatlarni maksimal darajada kamaytiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga doir har jihatdan yangi «sozlanuvchi» vositalar va metodlar yig'indisidir.

YaITning asosiy tamoyillari:

- tubdan yangi biznes modellarni yaratish;
- har xil IT xizmatlarni oqilona birlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini real iqtisodiyot sektoridagi tashkiliy va texnologik jarayonlarda qo'llash;
- tranzaksion xarajatlar va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan moddiy resurslarni minimallashtirish.

YaIT raqamli texnologiyalar asosida mavjud iqtisodiy realiyalarda rivojlanib boradi. Avvalroq ishlab chiqarish, savdo va moliyaga oid texnologiyalar paydar-pay takomillashib kelgan bo'lsa, hozir yuzaga kelgan YaITlar gorizontal munosabatlarga (o'z-o'zini tashkil qilish va singulyarlik), innovatsion tadbirkorlik (o'z-o'zini rivojlantirish), axborot muhandisligi (o'z-o'zini takomillashtirish) va iqtisodiy jarayonlarning avtoformalizatsiyasiga (avtomatik tuzilish) tayanch vazifasini o'tamoqda. Axborot-konsalting xizmatlari va davlat taraqqiyot agentliklari singari yangi institutlar ishbilarmonlik muhitini takomillashtirishning tashkiliy asosi bo'lib xizmat qiladi[19].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.- T.:2022 yil 28yanvar, PF-60-sonli Farmoni.
2. «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-6079-son . 2020 yil 5 oktyabr.
3. «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-158-son . 2023 yil 11 sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori PQ-4699-son 2020 yil 28 aprel.
5. Yuldasheva S.N. Ishlab chiqarish menejmenti. Darslik:- Buxoro. "Bukhara Brilliant Cargo", 2024. – 248 b.
6. Бурцева К.Ю. Управление человеческим капиталом в интересах инновационного развития предприятия. Монография. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013.
7. Абдурахманов К.Х. Развитие человеческого капитала в инновационной экономики. // "Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали" илмий-электрон журнали. 2022 йил, маҳсус сон.
8. Юлдашева С. Н. СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ-ОСНОВА РАЗВИТИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАРОДА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 86-87.
9. Юлдашева С. Н. РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН И РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА УЛУЧШЕНИЕ ЕЁ СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 337.
10. Юлдашева С. Н., Артикова А. Д. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ПЛАНЫ ПО РАЗВИТИЮ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 344-347.
11. Юлдашева С. Н. ОСНОВНЫЕ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОКРАЩЕНИЯ УРОВНЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2021. – С. 166-169.
12. Raximova D., Alimova R. BIZNESDA ESG TAMOYILLARINI QOLLASH-INNOVATSION IQTISODIYOTNING MUHIM YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 362-365.
13. Захидова У. Ф., Алимова Р. Х. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 277.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

14. Dilnoza R., Rukhsora A. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE REGIONS //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 226-232.

15. Юлдашева С. Н. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ //Ученый XXI века. – 2017. – С. 107.

16. Юлдашева С. Н. ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ОШИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 105.

17. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.

18. Юлдашева С. Н. БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИАТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ.

19. Yuldasheva, S. "The Main Directions of the Organization of Production Processes at Industrial Enterprises in the Digital Economy." Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 2.4 (2021): 189-194.